

**TOVAR BELGILARI VA XIZMAT KO‘RSATISH BELGILARINI
RO‘YXATDAN O‘TKAZISH UCHUN TALABNOMA TOPSHIRISH
JARAYONIDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR**

Nasirillayeva Nadida Otabek qizi

Atanazarova Mastura Adxam qizi

Mahmudov Nizomiddin Olimjon o‘g‘li

Annotatsiya. Mazkur maqolada tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma topshirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, talabnoma beruvchilarning huquqiy bilim darajasi yetishmasligi, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi xatolar, ekspertiza jarayonining cho‘zilishi hamda elektron tizimlardan foydalanish bilan bog‘liq qiyinchiliklar o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi, talabnoma, ro‘yxatdan o‘tkazish, intellektual mulk, ekspertiza, huquqiy muhofaza.

Kirish

Bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ular nafaqat ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchini raqobatchilardan ajratib turuvchi vosita, balki iste‘molchilarning mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan ishonchini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilariga huquqiy muhofaza ularni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, talabnoma topshirish va uni ko‘rib chiqish

jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, talabnoma beruvchilarning yetarli huquqiy bilimga ega emasligi, hujjatlarni noto‘g‘ri rasmiylashtirishi, o‘xshash belgilar mavjudligini oldindan tekshirmasligi hamda ekspertiza jarayonining murakkabligi ro‘yxatdan o‘tkazishni qiyinlashtirmoqda.

Tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma topshirishda zarur bo‘lgan hujjatlar haqida qisqacha ma‘lumot.

Talabnomada quyidagilar bo‘lishi kerak:

-tovar belgisi sifatida belgini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ariza;

-talabnomada ko‘rsatilgan belgining tasviri;

-belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tovarlar va (yoki) xizmatlarning xalqaro tasnifiga muvofiq guruhlangan, tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish so‘ralayotgan tovarlarning ro‘yxati;

-belgilangan tartibda patent boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma topshirish jarayonidagi asosiy muammolari

Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun **talabnoma topshirish jarayonidagi eng asosiy muammolaridan biri bu bir talabnoma uchun bir nechta talabnomalar topshirish hisoblanadi.**

“Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasiga 1-qismiga asosan: “Tovar belgisini, tovar kelib chiqqan joy nomini va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun beriladigan talabnoma bir

ilmiy –amaliy anjuman

tovar belgisiga yoki tovar kelib chiqqan bir joy nomiga taalluqli bo‘lishi lozim”.

Ikki yoki undan ortiq tovar belgilariga tegishli talabnomalarga misollar:




1-rasm

Ushbu 1-rasmda ikkita tovar belgilari bitta talabnoma uchun topshirilgan.

Shuning uchun ushbu talabnoma rasmiy ekspertiza jarayonida Qonunning 9-moddasiga asosan rad etilgan.



2-rasm



3-rasm

Ushbu 2-rasmda beshta tovar belgilari bitta talabnoma uchun topshirilgan. 3-rasmda esa to‘rtta tovar belgilari bitta talabnoma uchun topshirilgan.

Ushbu turdagi talabnomalar Qonunning 9-moddasiga binoan rasmiy ekspertiza jarayonida rad etilishiga asos bo‘ladi. Natijada talabnoma topshirish uchun to‘langan davlat boji ham kuyadi.

Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma topshirish jarayonidagi yana bir muhim muammolaridan biri **bu Tovar va xizmatlar xalqaro tasnifining noto‘g‘ri tanlanishidir.**

Tovar va xizmatlar xalqaro tasnifining noto‘g‘ri tanlanganiga misol:

Talabnoma topshiruvchi 11-sinf uchun quyidagi tovar va xizmatlarni tanlagan: *“ISITISH USKUNALARINI O‘RNATISH VA TA‘MIRLASH; gazli yondirgichlar ;gazli yondirgichlar uchun friksion o‘t oldirgichlar; qattiq, suyuq va gazsimon yoqilg‘i bilan ishlovchi isitish-qizdirish asboblari ;gazlarni tozalash uchun priborlar ;gaz gorelkalari ;gazli doshqozonlar”*.

Ammo **“ISITISH USKUNALARINI O‘RNATISH VA TA‘MIRLASH”** TXXT (Tovar va xizmatlar xalqaro tasnifi)ning 37-sinfiga mansub. Ushbu turdagi talabnomalarga TXXTga aniqlik kiritish maqsadida rasmiy ekspertiza jarayonida so‘rovnoma yuborilishiga asos bo‘ladi.

Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma topshirish jarayonidagi yana bir muammolaridan biri **bu Arizadagi 571 (Belgining tavsifi) hamda 591 (Rang va ranglar uyg‘unligi) maydonlarining noto‘g‘ri to‘ldirilishidir.**

Qanday to‘g‘ri to‘ldirilishi kerak? Bunga bir misolni ko‘rib chiqamiz.



4-rasm

Ushbu 4-rasmdagi Tovar belgisini misol sifatida ko‘rib chiqamiz.

571 (Belgining tavsifi): Belgi jamlanma bo‘lib daraxt tasviri ifodalangan. Tasvir tagida SADA Mebel so‘zli elementlari mavjud. Atrofida to‘rtburchaksimon qizil chiziqlar chizilgan.

591 (Rang va ranglar uyg‘unligi): Yashil, qizil, oq, qora.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma topshirish jarayonidagi muammolar asosan huquqiy bilim yetishmasligi, hujjatlarni noto‘g‘ri rasmiylashtirish hamda tashkiliy va texnik kamchiliklar bilan bog‘liqdir. Ushbu muammolar intellektual mulk obyektlarining samarali huquqiy muhofazasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

-talabnoma beruvchilar uchun tovar belgilari bo‘yicha o‘quv-seminarlar va maslahat xizmatlarini kengaytirish;

-onlayn talabnoma topshirish tizimlarini texnik jihatdan takomillashtirish va soddalashtirish;

-patent vakillari faoliyatidan foydalanishni rag‘batlantirish;

ilmiy –amaliy anjuman

-amaliy uslubiy qo‘llanmalar va namunaviy hujjatlar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini takomillashtirish intellektual mulk huquqlarini ishonchli himoya qilishga hamda mamlakatda sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.